# JIZZAXLIK SHAXMATCHI QIZ FARANGIZ

**Nishonova Mahliyo Mamadali qizi**
*Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani*
*MMTB ga qarashli 19-maktab jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada shaxmat va uning o'quvchi va yoshlar hayotidagi ahamiyati haqida fikir yuritilgan.*

**Kalit so'zlari:** *Uzluksiz ta'lim tizimi, komil inson, yangi avlod,shaxmat doskasi,chimpion*

O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimi muassasalarini yangi avlod o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash, talaba-o‘quvchilarni komil inson qilib yetishishiga qaratilgan innovatsion darsliklar va o‘quv adabiyotlarini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.



Hozirgi kunda zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish asosida ma’lum faoliyat ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatni nazorat qilish, talabalar tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

O‘yin har doim tarbiyaning asosi bo‘lib kelgan. Bu jarayonda shaxmat qanday rol o‘ynashi mumkin? Shaxmat ko‘pincha “o‘yin” deb nomlanadi. Ha, bu o‘yin. Ammo u sport, fan, hatto san’atning ko‘plab elementlarini o‘z ichiga oladi. Shaxmatning o‘tmishi va bugungi kunini, ularning ko‘p qirrali ijtimoiy ta’sirini hisobga olgan holda, mubolag‘asiz aytish mumkinki: shaxmat insoniyat madaniyatining ajoyib va zarur qismidir.

Buni jamiyatda shaxmatning ijtimoiy ta’siri kuchayib borayotganini o‘zi ko‘rsatib turibdi. Maktabda shaxmat majburiy fan sifatida kerakmi? O‘quv jarayonida u qanday vazifalarni hal qilishi mumkin? Ko‘plab olimlarning ta’kidlashicha, shaxmat – umumiy va intellektual qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ta’limning bir turi hisoblanib, psixologik jarayonlarni rivojlantiruvchi, insonni aqliy, ijodiy va tarbiyaviy komolotga erishishiga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir.

Darhaqiqat bizning qahramonimiz ham yoshligidan shaxmatga qiziqib kelgan Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani 19- maktab o’quvchisi Samadova Farangiz yoshligidan shaxmat o’ynab keladi 2015-yilda maktabda tuman va viloyatda o’tkazilgan shaxmat musoboqasida yosh doirasida chimpio va yana 2016-yil shaxmat musoboqasida oltin medal I-o’rin viloyat chimpioni bo’lganlar .

Yosh qizimiz erishgan natijalariga qoniqmasdan izlanishda yana davom etdi va 2018- yil ,, Yoshlar shaxmat taxtasi ” musoboqasida Respublika II-o’rin kumush vas hu yilning o’zida 2018- yil maktab o’quvchilari o’rtasida Respublika chipionati 2 ta III -o’rin .2022-yil Umid nihollari sport musoboqalari shaxmat bo’yicha viloyat chimpioni bo’lishga sazovar bo’lgan.










Blits, Ropit yo’nalishilarida 2023-yil Osiyo chimpionatida kuchli o’ntalikka kirgan ,2024-yil 8-Mart Xalqaro xotin qizlarni himoya qilish kuni munosabati bilan o’tkazilgan musoboqada Osiyo jamolari o’rtasida V- o’rinni egalagan.

Xulosa o’rnida,Shaxmat o‘quvchilarni yanada ma’nan sog‘lom qilib tarbiyalashda qo‘shimcha vosita bo‘lib xizmat qiladi. Buning sababi, o‘yin jarayoni oddiy manipulyativ mexanik yodlash emas, balki har safar jiddiy tahliliy faoliyatni rivojlantiradi. Shaxmat bilan shug‘ullanadigan bolalarni, har qanday maktab fanlarini o‘rganishi osonroq kechadi.